


TONG YULDUZI

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqra boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

XAYR MAKTAB, SALOM KOLLEJ!




KITOB - BEBAHO MO'JIZA

RESPUBLIKA
KITOB
BAYRAMI

Shu yilning 22-23-may kunlari poytaxtimizning G'afur G'ulom nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida «Adabiyotga e'tibor - ma'naviyatga, kelajakka e'tibor» shiori ostida respublika Kitob bayrami bo'lib o'tdi.

(Davomi 4-5-betlarda)



Sh. MAXMADIYEV olgan suratlari va kollaji

AJDODLAR MEROSIGA EHTIROM

Mustaqillik yillarida yosh avlodni ajdodlar ilmiy merosiga hurmat ruhida tarbiyalash, o'z ilmiy izlanishlari orqali dunyo tamadduniga beqiyos hissa qo'shgan buyuk allomalar, olimlarning mehnatlari va ixtirolarini chuqur o'rganishga katta e'tibor qaratib kelinmoqda.

Samarqand shahrida bo'lib o'tgan «O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi roli va ahamiyati» mavzusidagi xalqaro konferensiya ham ana shu ezgu ishlarning mantiqiy davomi bo'ldi. Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan tashkil etilgan ushbu xalqaro anjumanda ellikka yaqin mamlakatdan kelgan olimlar, nufuzli xalqaro tashkilotlar rahbarlari, professorlar, ilmiy markazlar va institutlar mutaxassislari, ekspertlar ishtirok etdi. Anjumanda Sharq allomalarining astronomiya, matematika, geografiya va geodeziya kabi aniq fanlar shakllanishidagi o'rni, tibbiyot, farmakologiya, kimyo va mineralogiya singari tabiiy

fanlar rivojlanishiga qo'shgan ulkan hissasi, shuningdek, o'rta asrlar mutafakkirlarining tarixiy va falsafiy merosi, tilshunoslik va adabiyot sohalaridagi yutuqlari haqida so'z yuritildi.

Xorijlik mehmonlar, shuningdek, Samarqand avtomobilsozlik hamda Yengil sanoat va iqtisodiyot kasb-hunar kollejlari bo'lib, mamlakatimizda joriy etilgan 12 yillik uzluksiz ta'lim tizimi bilan tanishishdi. Mehmonlar yoshlarning xalqaro standartlar asosida, zamon talablariga mos ta'lim-tarbiya olishi uchun yaratilgan sharoit va imkoniyatlarga yuksak baho berishdi.

Mahmudjon AZIMOV

OILA - MUQADDAS GO'SHA

Kuni kecha poytaxtimizdagi Kolanov nomidagi kompyuter texnologiyalari kasb-hunar kollejida Xalqaro oila kuni va «Sog'lom bola yili»ga bag'ishlab «Oila - muqaddas oshyon» deb nomlangan tadbir bo'lib o'tdi.



Unda so'z olganlar yurtimizdagi har bir oilaning mehmondo'stligi, ularning bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbati haqida gapirib, bu xislatlar o'zbek oilalarigagina xosligini ta'kidlashdi.

Shuningdek, mazkur kollejning ruhshunosi Sayyora opa Obilova sog'lom farzandni voyaga yetkazish har bir ota-onaning muqaddas burchi ekanligini, sog'lom bola sog'lom muhitdagina kamol topishini aytib o'tdilar.

Tadbir mehmonlari kollej o'quvchilarining oilaga taalluqli barcha savollariga atroflicha javob berishdi. Ayniqsa, kecha so'ngida namoyish etilgan sahna ko'rinishi barchada katta taassurot qoldirdi.

ODINA

Yaqinda Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseyida umumta'lim maktab o'quvchilari o'rtasida uch bosqichda o'tkazilgan «Huquq bilimdonlari» Respublika tanlovining yakuniy bosqichi bo'lib o'tdi.

HUQUQ BILIMDONLARI

Mazkur tanlovda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan kelgan jami 14 jamoa o'zaro bellashishdi.

Dastlab jamoalar mutaxassislar tomonidan tuzilgan test savollariga javob berishgan bo'lsa, ikkinchi shartda ishtirokchilarning huquqiy bilimdonliklari sinovdan o'tkazildi.

Yakuniy shartda jamoalar o'quvchilarning huquqiy madaniyati va savodxonligini oshirish, voyaga yetmaganlar o'rtasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish choralarini bo'yicha erkin sahna ko'rinishini namoyish etishdi.

Tanlov yakuniga ko'ra, Xorazm viloyati jamoasi birinchi, Andijon viloyati o'quvchilari ikkinchi, Namangan viloyatining huquq bilimdonlari esa uchinchi o'rinni qo'lga kiritdi.

Men ushbu tanlovda ishtirok etish orqali o'z bilimimni mustahkamladim, ko'p do'stlar ortirdim. Shuningdek, jamoamiz bilan birga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati faoliyati bilan tanishdik, Mustaqillik maydoni, «Ma'rifat» markazida bo'lib, musiqali favvoralar oldida esdalik uchun suratga tushdik, — deydi Xorazm viloyati, Urganch shahridagi 22-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Sarvinoz Normatova.

G'oliblar tanlov tashkilotchilari tomonidan faxriy yorliq, diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Dilrom HOTAMOVA



ZUHRA olgan surat

MAKTABDA OCHIQ DARS

Yaqinda poytaxtimizning Mirobod tumanidagi 60-davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabida an'anaviy «Ochiq eshiklar kuni» bo'lib o'tdi.

Tadbir doirasida 41 ta fan bo'yicha ochiq dars tashkil etilib, ular uch yo'nalishda — boshlang'ich sinflar, o'rta sinflar hamda nemis tili bo'limi bo'yicha olib borildi.

Tadbirda barcha fanlarni qamrab olishga harakat qilindi. Nemis tili fani bo'yicha ochiq darslarni ustozlar interfaol usulda o'tib, o'quvchilarning so'zlarni to'g'ri yoza olishi, erkin so'zlashi va tarjima mahoratiga alohida e'tibor qaratildi.

Nemis tili fani bo'yicha o'tkazilgan ochiq darsdan olam-olam taassurot oldim. Ayniqsa, ustozimizning darsni ko'rgazmali qurollar yordamida o'tishi bu fanni yaxshi o'zlashtirishimizga yordam bermoqda, — deydi maktabning 1-«A» sinf o'quvchisi Saidahmad Ismatullayev.

O'z muxbirimiz



Navra'z NORBOBOYEV olgan surat

QISQA SATRLARDA

2014-yilda respublika bo'yicha 380 ta maktabda qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirilishi rejalashtirilgan bo'lib, shundan 220 tasini rekonstruksiya qilish, 160 tasini kapital ta'mirlash ko'zda tutilgan. Ushbu maqsadlarga jami 291,6 milliard so'm mablag' ajratiladi.

8165 ta (83.6%) maktablar fizika, biologiya va kimyo laboratoriyalarini bilan, 8170 ta (83.7%) umumta'lim maktabi o'quv-kompyuter sinflari bilan ta'mirlangan.

2009–2013-yillarda Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan 230 ta bolalar musiqa va san'at maktablari (104 ta yangi qurilish, 126 ta kapital rekonstruksiya) foydalanishga topshirilgan bo'lsa, joriy yilda 48 ta maktabda qurilish-tiklash ishlari amalga oshirilmogda.

Joriy o'quv yilida Toshkent shahrida «Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi — 2014» ko'rik-tanlovi o'tkazilib, unda 14 ta fandan 196 nafar pedagog o'zaro bellashdilar.

2014-yilning may oyiga qadar 50 nafar o'quvchilarimiz turli xalqaro tanlovlarda faxrli o'rinlarga sazovor bo'ldi.

Tugayotgan o'quv yili davomida respublika bo'yicha jami 3043 ta sport tadbirlari o'tkazilgan bo'lib, ularda 646 036 nafar o'quvchi-yoshlar ishtirok etishdi. Shuningdek, 6 ta nufuzli xalqaro sport tadbirlarida jami 47 nafar (shundan 10 nafari qizlar) o'quvchilarimiz qatnashib, 3 ta oltin, 5 ta kumush va 8 ta bronza, jami 16 ta medallarni qo'lga kiritishdi.

Respublikamizdagi 211 ta «Barkamol avlod» bolalar markazlaridagi 4341 ta to'garakda 6 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan 103 624 nafar o'quvchilar shug'ullanmogda.

Joriy yilda respublika bo'yicha 950 ta oromgohlar tashkil etilib, ularda 281 342 nafar bolalarning dam olishi rejalashtirilmogda.

KASBLAR JUDA XILMA-XIL...

G'allaorol tumanidagi 16-umumta'lim maktabida «Dunyoda kasblar ko'p» marzusida tadbir bo'lib o'tdi.

Kechada 9-sinf o'quvchilari «Usta», «Hunarmand» hamda «Tadbirkor» nomli guruhlariga bo'lingan holda kasb-hunarlariga oid sahna ko'rinishlari namoyish etishdi.

– Olimlar mahallasida istiqomat qilaman. Mahalladoshimiz Amina opa to'qiyotgan gilamlarga hamma havas qiladi, – deydi maktab bitiruvchisi Madina Po'latova. – Betakror naqshlar, anvoiy gullar aksi va kamalak rangida tovlanuvchi gilamlarning shu bois xaridorlari bisyor.

– Mahalladoshim, sangzorlik usta kulol Fayzulla amaki ko'p yillardan buyon o'z kasbini e'zozlab keladi, – deydi 9-sinf o'quvchisi Zafar Meliyev. – O'smir yoshlarga kasb-hunar sirlarini o'rgatishdan sira charchamaydigan usta amaki har bir buyurtmani

bekam-u ko'st bajaradi. Shu bois u turli ko'rik-tanlovlarda sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritib kelmoqda.

Tadbir so'ngida kasb-hunarlariga oid ko'rgazma namoyish etildi.

Abdulla SAIDOV,
Jizzax viloyati

FAN BOG'IDAGI BOG'BONLAR

Bog'bon erta bahorda yerga ko'chat o'tqazib, uni mehr bilan parvarishlaydi, zararkunandalardan asrab-avaylaydi. Keyin sabr bilan nihollarining meva tugishini, hamma undan bahramand bo'lishini kutadi.

Men ustozlarni fan bog'idagi bog'bonga qiyoslagim keladi. Darhaqiqat, muallim maktabga ilk bor qadam qo'yganimizdan to uni tamomlagunimizga qadar bizga saboq berishdan charchamaydi. U bilmaganlarimizni o'rgatib, hayot maktabiga tayyorlaydi, ilm beradi. Bog'bon ekan nihollarining shirin-shakar meva berishini istasa, muallim shogirdlarining baxt-u kamolini, yurtga sodiq farzand bo'lib ulg'ayishini xohlaydi.

Ma'sumaxon SALOHIDDINOVA,
Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanidagi
4-umumta'lim maktabi o'quvchisi

OQ YO'L, QADRLI TENGDOSHIMI!



To'qqiz yil jonjon maktabim bag'rida mehridaryo ustozlardan saboq olib, mana bugun katta hayotga uchirma bo'lmoqdamiz.

Sevimli fanim nemis tilini chuqur o'rganim kasb tanlashimga turtki bo'ldi. Kelajakda yetuk tarjimon bo'lib, yurtim ravnagiga munosib hissamni qo'shmoqchiman. Sevimli gazetam «Tong yulduzi» va ustozlarimdan olgan saboqlarni esa hech qachon unutmayman.

Fayoza TURSUNOVA,
Qashqadaryo viloyati, Kasbi tumanidagi
7-umumta'lim maktabining
9-«B» sinf o'quvchisi

TA'TILNI QANDAY O'TKAZMOQCHISIZ?

Bolajonlar, yozgi ta'tilni qanday o'tkazishni allaqachon o'ylab qo'ygan bo'lsangiz kerak. Biringiz oromgohga borishni, yana biringiz ota-onangizga ko'maklashishni, ba'zilaringiz esa tog' yonbag'irlarida maroqli dam olishni rejalashtirgansiz, shundaymi?



– Men yozgi ta'tilni qishloqda bobom bilan buvimning yonida o'tkazmoqchiman, – deydi Toshkent shahridagi 283-umumta'lim maktabining 3-«G» sinf o'quvchisi Mohirbek Tohirov. – Ular kitobni juda yaxshi ko'rishadi. Mendan ham ko'proq kitob o'qishni talab qilishadi. Shu bois qishloqdagi kutubxonaga a'zo bo'lib, sevimli adiblarning kitoblarini mutolaa qilmoqchiman.

– Men onamga uy yumushlarida yordamlashib, singlim Umidaga o'qish va yozishni o'rgatmoqchiman, – deydi Samarqand viloyati, Oqdaryo tumanidagi 2-umumta'lim maktabining 2-«G» sinf o'quvchisi Marjona Shirinboyeva. – Shuningdek, ta'tilda opamdan ingliz tilini o'rganish niyatim bor.

Aziz bolajonlar, mana, ikki tengdoshingizning yozgi ta'til oldidan tuzib qo'ygan rejalari bilan tanishdingiz. Xo'sh, siz ta'tilni qanday o'tkazmoqchisiz?

Rayhona OCHILOVA

«XORAZMIY IZDOSHLARI»NING MUVAFFAQIYATI

– Aziz o'quvchilar, keling, bugun o'quv yili davomida o'rganganlarimizni takrorlab, ochiq dars o'tkazamiz. Sizlar ikki guruhga bo'lingan holda bellashasizlar.

Matematika fani o'qituvchisi Dilbar opa Ibodovanning bu taklifidan quvongan Toshkent davlat sharqshunoslik instituti qoshidagi Olmazor akademik litseyining 1-bosqich o'quvchilari darsga qizg'in tayyorgarlik ko'ra boshlashdi. Axir yil davomida olgan bilimlarini namoyish etib, g'olib bo'lishni kim ham xohlamaydi, deysiz?.. A'lochi o'quvchilardan biri Sarvinoz Asatullayeva sardorligidagi guruh

«Iqtisodchilar», Diyora Husanova boshchiligidagi jamoa «Xorazmiy izdoshlari» nomini oldi.

Har bir darsni qiziqarli va turli ko'rgazmali qurollar bilan o'tadigan ustoz bu safar beshta shartni e'lon qildi: so'z o'yini, aql charxi, zukkolar o'yini, jonli matematika va auksion. Bu shartlar sizda ham qiziqish uyg'otyapti, shundaymi? Avvalo, Dilbar opaning bugungi ochiq dars uchun doskaga yozgan «Tenglamalar sistemasi» mavzusi haqida. Qani ayting-chi, siz tenglamalarni yechishning qanday usullarini bilasiz? Bu savolga Adhamjon Boqijonov birinchilardan bo'lib javob berdi:

– Tenglamalarni yechishning o'ndan ortiq usullari bo'lib, biz o'tgan darslarda ulardan qo'shish, o'rniga qo'yish, grafik usullarini o'rgangan edik.

Shu tariqa o'tilgan darslar yana bir karra takrorlab olingach, bilimlar bahsi boshlandi. Unga o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Laylo opa Tagiyeva va aniq fanlar kafedrası mudiri Mehriniso opa Allayeva



hakamlik qilishdi.

O'quvchilar zukkolar o'yinini bajarib, aqlni charxlab olishgach, navbat jonli matematika shartiga berildi. Bunda guruh a'zolari sahna ko'rinishi orqali namoyish etilgan masalaning yechimini mantiqiy fikrlab topishdi. Ana shunday bir-biridan qiziqarli shartlarni a'lo darajada bajargan «Xorazmiy izdoshlari» guruhi yakunda g'olib deb topildi. Eng muhimi, bilimlar bahsi o'quvchilarni matematika faniga yanada qiziqitira oldi.

Sayyora QODIROVA.
Muallif olgan suratlar



EZGU MAQSADLARGA YUKSAK MA'NAVIYAT, UZLUKSIZ MA'NAVIY TARBIYA ORQALI ERISHILADI



Xudoyberdi TO'XTABOYEV, O'zbekiston xalq yozuvchisi:

– Bugun mamlakatimizdagi umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda barcha mahallalarda kitobxonlik bayrami uyushqoqlik bilan o'tkazilmoqda. An'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan ushbu bayramning mazmundorligi joriy yilda yanada boyidi. Unda milliy va jahon mumtoz adabiyoti durdonalariga keng o'rin berilgan.

Mening yozuvchi bo'lishimga bolaligimda Robiya buvim aytib bergan bir-biridan qiziq ertaklar yordam bergan. Qolaversa, kitobga bo'lgan mehrim meni adabiyot deb atalmish sirli olamga yetaklagan. Lekin bizning bolalik davrimizda bugungidek rang-barang va qiziqarli kitoblar yo'q edi. Shu ma'noda sizdek baxtiyor yoshlarga juda havas qilaman. Yana bir gap. Endi sizlarga hech qanday «sehrli qalpoqcha»ning keragi yo'q. Chunki barchangizning o'z «qalpoqcha»ngiz bor. Bu – sizlarga davlatimiz tomonidan mukammal bilim olish uchun yaratib berilayotgan qulay shart-sharoitlar va g'amxo'rliklarda, qolaversa, bugungi anjuman misolida namoyon bo'lmoqda. Sizlardan faqat o'qish va o'rganish talab etiladi, xolos. Ilim-u ma'rifatli bo'lish uchun astoydil yeng shimaring, aziz bolajonlarim!

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim, Madaniyat va sport ishlari vazirliklari, Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, Respublika «Mahalla» xayriya jamoat fondi, Toshkent shahar hokimligi, «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, «O'zdavkitobsavdota'minoti» MCHJ

hamkorligida o'tkazilgan anjuman kitobsevarlarning chinakam bayramiga aylanib ketdi.

Kitobxonlar sevimli yozuvchi va shoirlar bilan uchrashib, o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar. O'z navbatida bolajonlar ham o'qigan kitoblari yuzasidan fikr-mulohazalarini bildirishdi.

Muxbirlarimiz esa bayram ishtirokchilari bilan suhbatlashib, tadbir jarayonini fototasmalarga muhrlashdi.



Abdug'ani XOLBEKOV, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri o'rinbosari, «Tong yulduzi» gazetasi tahrir hay'ati a'zosi:

– Bugungi o'tkazilayotgan bayramning g'oyasi juda ulug'vordir. Chunki undan ko'zlangan asosiy maqsad – farzandlarimizni kitobga oshno etishdir. Zero, kitobni sevgan, u bilan do'st tutingan boladan hech qachon yomonlik chiqmaydi.

«Tong yulduzi» gazetasi haqida to'xtalsam, ushbu nashr nafaqat o'quvchilar, balki keng ommaning sevimli gazetasidir. Unda chop etilayotgan hikoyalar, she'rlar, turli mavzudagi maqolalar yosh avlod dunyoqarashini shakllantirishda o'ziga xos mayoq vazifasini o'tamoqda.

KITOB — BEBAHO MO'JIZA



Anvar OBIDJON, O'zbekiston xalq shoiri:

– Bu tadbir yosh avlod o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib etishga xizmat qiladi. Bugungi bayramda ishtirok etayotgan bolalarning bir-birlari bilan maslahatlashib kitob tanlashlari yanada quvonarli. Shu o'rinda o'zim guvoh bo'lgan ibratli bir voqeani aytib o'tmoqchi edim. Xususiy korxonalar va ayrim tadbirkorlar katta miqdorda kitoblarni sotib olib, kutubxonalarga sovg'a qilishayotgan ekan. Istagim, oramizda ana shunday saxovatpesha insonlar, kitobxonlar yanada ko'paysin.



Tohir MULLABOYEV, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist:

– Bugungi bayram mening nazarimda eng ezgu ayyomlardan biridir. Chunki bunday keng miqyosdagi anjuman dunyoning kamdan kam mamlakatlarida o'tkaziladi. Insonlarga ma'rifat va ziyo ulashuvchi ushbu tadbir ana shu jihatlari bilan ahamiyatlidir. Unda ishtirok etgan bolajonlar ulariga hech bo'lmaganda bitta kitob bilan kirib borsalar, ko'zlangan maqsadga erishgan bo'lardik.



Poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 283-umumta'lim maktabi o'quvchilari Umida Hakimjonova va Durдона Alisherova ham yozgi ta'tilda mutolaa qilishlari uchun Alisher Navoiyning «Xamsa» asarini, ukalari uchun esa ertak kitobi olganligini quvonch bilan ta'kidladilar.



Maxbirlarimiz o'lgan suratlari

Mutasaddi tashkilotlar tomonidan ilk bor o'tkazilgan festivalda Toshkent shahridagi axborot-resurs markazlarining faol kitobxonlari hamda respublikamizda istiqomat qilayotgan turli millat vakillarining kitobsevar farzandlari ishtirok etdi.

Tadbir avvalida «Bulbulcha» bolalar ashula va raqs dastasi tomonidan ijro etilgan bir-biridan sho'x qo'shiqlar ishtirokchilar va

ZIYOSIDAN QALBLAR YORISHAR

Farzandlarimizning yuksak ma'naviyatli, go'zal xulq egasi bo'lib ulg'ayishida kitobning o'rmi bo'lakcha. Kuni kecha Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'ida bo'lib o'tgan «Kitob bizni birlashtiradi» festivalidan ko'zlangan asosiy maqsad ham yosh avlod o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilishdan iboratdir.

mehmonlarga bayramona kayfiyat bag'ishladi.

Shuningdek, tadbir davomida eng faol yosh kitobxonlar aniqlandi.

Faol kitobxon nomiga sazovor bo'lganlar orasida poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 249-umumta'lim maktabi o'quvchisi Anvar Xalilov ham bor.

– Maktabimizda o'zbek va jahon bolalari yozuvchilarining eng sara kitoblari jam bo'lgan

katta kutubxonamiz bor.

Kutubxonachi opamiz bizga, mashinasi bor odam boy emas, balki shaxsiy kutubxonasiga ega, ma'naviyatli va zakovatli inson badavlat hisoblanadi, deb ta'kidlaydilar. Kelgusida men ham o'z shaxsiy kutubxonamni tashkil qilmoqchiman.

O'zbekiston xalq yozuvchisi, sevimli adibimiz Xudoyberdi To'xtaboyev ta'kidlaganidek, kitob kirib

borgan xonadonda har kuni bayram, shodiyona bo'ladi.

Tadbir yakunida yurtimizda faoliyat yuritayotgan nashriyotlar tomonidan kitoblar ko'rgazmasi ham tashkilashirildi.

Mahmudjon AZIMOV. Muallif o'lgan suratlari




Shuningdek, tadbirda qiziqarli va tarbiyaviy ahamiyatga ega hikoyalari bilan sizlarga tanish bo'lgan hamkasbimiz Yusuf Abdullayevning «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etilgan «Lafz» nomli kitobining taqdimoti ham o'tkazildi.

Qo'shsahifani o'z muxbirlarimiz tayyorlashdi

ONA QISHLOG'IM

Baxtiyorman bag'ringda,
Ona qishloq, oy qishloq.
Bilsang, yaxshi ko'raman,
Seni hammadan ko'proq.

Bag'ringda yayrasam,
Bulbul kabi sayrasam.
Jo'shib ketar yuragim,
Iqbolingni o'ylasam.



Ta'rifingga hamma payt,
She'r bitgim kelar ko'proq.
Yaxshi ko'rasan-a, ayt,
Meni hammadan ko'proq?!

Nozimjon ABDULHAYEV,
Namangan viloyati, Norin
tumanidagi 37-umumta'lim
maktabi o'quvchisi



QO'NG'IROQ

Bolalik chog'lari yodimdan ketmas,
U hamon qalbmida porlagan chiroq.
Bugun oqqush misol qilamiz parvoz,
Ko'zlarda hayajon, lablarda titroq.

Tashakkur, mehribon, munis ustozim,
Sizlarga bosh egib qilaman ta'zim.
Yodimda maktabda kechgan har bir dam,
Bugun quvonch ila ko'zlarimda nam.

Umida KARIMOVA,
poytaxtimizdagi Sergeli sanoat
kasb-hunar kolleji o'quvchisi

DURDONA ASARLAR TARANNUMI

Poytaxtimizdagi «Turkiston» san'at saroyining yozgi sahnasida «Yoshlik bahori» respublika yosh opera ijrochilari festivali va gala-konserti bo'lib o'tdi. «Sog'lom bola yili» Davlat dasturi doirasida Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Toshkent shahar hokimligi hamda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi hamkorligida tashkil etilgan mazkur festivalda davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, yurtimizda faoliyat yuritayotgan xalqaro tashkilotlar xodimlari, taniqli san'atkorlar, OAV xodimlari hamda keng jamoatchilik ishtirok etdi.



Quyosh ufq uzra bosh qo'rgan mahal san'at koshonasining yozgi amfiteatri rang-barang chiroqlar yog'dusida ajib manzara kasb etdi. Ilk bor o'tkazilayotgan ushbu festival doirasida opera xonandaligi bo'yicha ijod qilayotgan 55 nafar yakkaxon va 3 ta xor jamoalari o'z ijod namunalari taqdim etishdi. Gala-konsertda, shuningdek, Jon Lau, Jakkimi Puchchino, Sulayman Yudakov, P.I. Chaykovskiy, Friderik Lau, Franchisko Sartori, Xans Zimmer kabi jahonga mashhur kompozitorlar

ijodiy asarlari ham ijro etildi.

E'tiborlisi, festivalda yurtimiz ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan va ijod bo'stoniga endigina qadam qo'rgan 90 nafar yosh sozandalardan iborat yoshlar orkestr jamoasining ishtiroki tomoshabinlarda katta taassurot uyg'otdi. Bir so'z bilan aytganda, san'atning durdona namunalaridan tuzilgan musiqiy guldasta festivalning barcha ishtirokchilarini xushnud etdi.

Jamshid KAMOLOV

CHIP-CHIPJON

Yayra
SA'DULLAYEVA



(Davomi. Boshi o'tgan sonda)

YANGI O'RTOQLAR

Chip-chipjon Do'mboqvoy bilan mazza qilib o'ynab yurgan edi, xuddi o'zinikiga o'xshash tovushlarni eshitib qoldi. Oltin tangadek yurakchasi qalqib ketdi. U Do'mboqvoyga «Biroz vovullamay tursangiz-chi», degandek yaliniq boqdi va tovush kelgan tomonga qaradi. Ur-re, yaxshi eshitibdi. Ana, tovuq qaqqillayapti, jo'jalar, voy bir xillari unga o'xshab, bir xillari undan sal boshqacharoq chiyillashyapti. Birdan Chip-chipjonning o'sha yoqqa borganisi kelib qoldi. Do'mboqvoy buni sezdi-yu, yugurib borib hovlining narigi chetidagi eshikcha oldida to'xtadi. Chip-chipjon ham. U yerda sim to'r tortilgan kattagina katalak bor ekan. Ularni ko'rib, ko'zlari yonib ketdi. U katalakka kirgisi, hamma bilan qo'shilib ovqatlangisi keldi. Lekin sim katalak berk edi. Xayriyat, hademay eshik ochildi...

Chip-chipjon tezda yangi o'rtolariga o'rganib qoldi. Ayniqsa, o'rtolarini ergashtirib yuradigan Chipor xola unga juda mehribon edi. U Chip-chipjonni bolalari qatori ko'rar edi. Ko'pincha Qoravoydan ehtiyot qiladigan ham shu edi. Chip-chipjon ular bilan birga o'ynar, birga ovqatlanardi. Faqat u bir narsaga tushunolmasdi. O'jarvoy degan o'zidan sal kattaroq to'q sariq jo'ja uni chiqishtirmasdi. Yoniga kelib baquvvat tortib

qolgan oyoqlari bilan yo tepib yo turtib ketardi. Bu holni ko'pincha Chipor xola ko'rmasdi. Chip-chipjon voy, degandagina «Nima qildi, shirinjonim?» deb oldiga yugurib kelardi. Chip-chipjon unga sir boy bermasdi. Uzoqdan buni kuzatib turgan O'jarvoy hech narsa bilmaganday boqar, birpasdan keyin yana kelib jig'iga tegardi. Buni Chip-chipjonning o'rtog'i Jimitjon ham sezib qoldi-yu, shu-shu uning yonidan ketmaydigan bo'ldi. Bu O'jarvoyning battar g'ashiga tegardi. Bu galgi «turtib» o'tayotganida Chip-chipjonning nozik patlari juda og'rib ketdi. Ko'zlarida milt-milt yosh paydo bo'ldi. Buni xolajonisi sezib qolib, avvaliga ajablandi. O'g'ilchasini chug'ullab-chug'ullab ko'rib berdi. Keyin biroz yumshadi:

– Bu ukang bo'ladi, xafa qilma!
– Hm... u ukam emas, oyisining oldiga borsin, – dedi kutilmaganda O'jarvoy.

– Uning oyisi... – Chipor xola og'zidan chiqib ketgan gapni to'xtatib qoldi. Ona-bola nimalardir deyishardi. Endi ularning gapi Chip-chipjonning qulog'iga kirmasdi. Yuragi alg'ov-dalg'ov bo'lib ketgandi. Chipor xolaning Chip-chipjonga rahmi kelib, qanotlari bilan boshini siladi.

Chip-chipjon shu kecha baribir uxlay olmadi. U Chipor xola o'zining oyisi bo'lib qolishini, uning oldida boshini ko'tarib yurishni istardi. Unga suyangisi, ayniqsa, O'jarvoyga «Sen oyimni xafa qilma», degisi kelardi. Afsuski, u tushungan narsani O'jarvoy tushunmasdi. Bu Chip-chipjonning qalbida onajoniga bo'lgan mehr edi.

(Davomi bor)

26-may 2014

MADHINGNI KUYLAYMAN, VATAN!

Yaqinda kollejimizda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, shoira Umida Abduazimova bilan ijodiy uchrashuv o'tkazildi. «Madhingni kuylayman, Vatan!» deya nomlangan tadbirda Muhabbat Abduqodirova rahbarligidagi «Ilk qadam» ijodkor yoshlar to'garagi a'zolari, mazkur kollejning ona tili va adabiyoti fani o'qituvchilari hamda o'quvchilar ishtirok etdi.

– Konlarga boy, tabiati xushmanzara shahar – Angren va uning ahliga havas qilaman, – deya so'zga chiqqan shoira tadbir ishtirokchilariga o'zining samimiy dil izhorlarini bildirib o'tdi. Uning «Shirintoy», «Bolasan», «Maqtanchoq», «Do'stlik», «Arazlamang» singari bir-biridan quvnoq she'r'lari barchaning yuziga tabassum ulashdi.

Iste'dodli o'quvchilardan biri Gulhida To'ychiyeva ijro etgan qo'shiqlar esa davraga o'zgacha zavq bag'ishladi.

Zuhra AHMEDOVA,
Toshkent viloyati, Angren shahridagi
Politehnika kasb-hunar kolleji o'quvchisi

«Paxtakor» markaziy o'yingohida oliy ta'lim muassasalari o'rtasida tashkil etilgan «Kamolot» kubogi futbol musobaqasining final bosqichi haqiqiy bayramga aylanib ketdi.

«KAMOLOT» KUBOGI» SOHIBLARI



Stadionda ushbu bosqichga qadar yetib kelgan O'zbekiston Milliy universiteti hamda O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti jamoalari saf tortishdi.

Ushrashuvning birinchi bo'limida O'ZMU jamoasi ustunlik qilib, tanaffusga 1:0 hisobi bilan chiqib ketdi. Ikkinchi bo'lim boshidanoq hujumga zo'ri bergan O'ZDITI jamoasi hisobni tenglashtirdi. Shundan so'ng o'yindagi

ustunlikni qo'lga olgan institut talabalari so'nggi daqiqalarda raqib darvozasiga yana bir to'p kiritib, zafar quchishdi.

«Kamolot» kubogi» sovrini g'olib jamoaga tantanali ravishda topshirildi. Tadbir so'nggida yosh san'atkorlar tomonidan ijro etilgan diltortar kuy-qo'shiqlar tomoshabinlarga ko'tarinki kayfiyat baxsh etdi.

JAMSHID

SHUJOAT VA TEZKORLIK TANTANASI

Navoiyda 1996–1997-yillarda tug'ilgan o'smirlar va g'izlar o'rtasida belbog'li kurash bo'yicha O'zbekiston chempionati yakunlandi.

Unda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardan 300 nafarga yaqin sportchi g'oliblik uchun o'zaro kuch sinashdi. Yakuniy natijalarga ko'ra, Farg'ona viloyati jamoasi birinchi, navoiyliklar ikkinchi, namanganlik yoshlar uchunchi o'rinni egalladi.

60 kg. vazn toifasida g'olib bo'lgan navoiylik Sherzod Shirinov ushbu musobaqada viloyat sharafini munosib himoya qilganidan xursand ekanligini yashirmadi. Kelajakda jahon chempioni bo'lishni maqsad qilgan Sherzodga omad tilaymiz.

Shoh MUHAMMAD



Mamlakatimizda sportga, ayniqsa, bolalar sportiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish maqsadida musobaqalar, turnirlar tashkil qilinmoqda.



G'ALABA MUBORAK!

Jumladan, «Kamolot» YOIH tomonidan o'tkazilayotgan «Kamolot» shaxmat taxtasi» respublika ko'rik-tanlovida ko'plab yosh shaxmatchilar qatnashib, o'z mahoratlarini namoyon etishmoqda.

Ushbu turnirda maktabimizning 2-sinf o'quvchisi Javlon Omonovning muvaffaqiyatli ishtiroki biz murabbiylarni behad quvontirdi.

Tanlovning viloyat bosqichida 1-o'rinni egallagan

o'quvchimiz yaqinda Xorazmda bo'lib o'tgan Respublika bosqichida faol ishtirok etib, jamoa bo'yicha faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritdi.

Javlonbekni ulkan g'alabasi bilan «Tong yulduzi» gazetasi orqali qutlashni niyat qildik. Zero, biz ana shunday iqtidorli o'quvchimiz borligidan faxrlanamiz. Kelgusida uning bundan-da ulkan yutuqlarga erishishiga ishonamiz.

Feruza SHODIYEVA,
Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumanidagi
5-umumta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

31-may – Xalqaro kashandalikka qarshi kurash kuni

XULOSA CHIQRARISH SIZDAN

Yurtimizda «Alkohol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilingan. Unda 18 yoshga to'lmagan bolalarga tamaki va alkohol mahsulotlarini sotishni taqiqlash to'g'risidagi modda ham bor.

– Bir dona sigaret tarkibida inson salomatligi uchun o'ta xavfli bo'lgan kimyoviy moddalar mavjud, – deydi poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 51-oilaviy poliklinika shifokori Umida Malikova. – Bu kimyoviy moddalar sirasiga magniy, kadmiy, metan, bundan tashqari, gazni tutib turuvchi, maxsus ishlov berilgan, xavfli yelim va bo'yoqlardan ishlangan qog'oz kiradi. Bitta chekuvchi odam o'zi faol chekuvchiga, atrofidagilarini esa passiv chekuvchiga aylantiradi. Chunki kashanda



odamning atrofida turgan odamlar ham tamaki tutunidan zaharlanishadi.

– Men darsdan bo'sh vaqtlarimda suzish to'garagiga qatnayman, ingliz tilini o'rganaman, rasmlar chizaman. Dadam doim «Sog'lom bo'lay desang, hech qachon yomon illatlarga berilma, kashandalik, ichkilikbozlikning oxiri voy», deb ta'kidlaydilar. Bu yomon illatga ruju qo'ymaslik oiladagi kattalarga ham bog'liq. Bizning oilamizda dadam ham, buvam ham tamaki chekishmaydi, – deydi poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 313-umumta'lim maktabining 4-sinf o'quvchisi Saidobid Husanov.

Mana, aziz bolajonlar, tamaking inson organizmi uchun qay darajada zararli ekani haqida oz bo'lsa-da ma'lumotga ega bo'ldingiz. O'ylaymizki, ushbu maqolamizni o'qigach, o'zingiz uchun tegishli xulosani chiqarib olasiz.

Ozoda TURSUNBOYEVA

RAHMAT SIZGA, BIRINCHI USTOZI!

Kuni kecha poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 288-umumta'lim maktabining 4-«A» sinfida «Xayr, boshlang'ich maktab!» deb nomlangan tadbir bo'lib o'tdi.

Kechaga ota-onalar, mahalla faollari taklif qilindi.

Tadbirda iste'dodli bolajonlar aktyorlik mahoratini namoyish etishdi. Ayniqsa, Jasurbek Ergashev hamda Nargiza Bakirovaning chiqishlari ishtirokchilar olqishiga sazovor bo'ldi.

So'zga chiqqan ota-onalar ustoz Feruza opa Ibragimovaning bolajonligi, talabchanligini alohida ta'kidlab o'tishdi.

O'z navbatida Zilolaxon, Islombek, Madinabonu, Nilufar, Gulshoda, Akbarshoh, Miraziz, Sharofiddin, Sirojiddin kabi o'quvchilar hamisha ustoz ishonchini oqlashga so'z berdilar.

Nigora ABDUNAZAROVA.
ZUBAYDA olgan suratlar



KROSSVORD

1							
2							
3							
4							
5							
6							
7							

Quyidagi boshqotirma to'g'ri yechilsa, bo'yalgan kataklardan Toshkent viloyatidagi tumanlardan birining nomi kelib chiqadi.

1. Shoh va shoir bo'lgan ulug' tarixiy shaxs ismi.
2. Ozod, hur.
3. Bilimlar makoni.
4. Qazilma boyligi.
5. Kelishuv, ahdlashuv.
6. Tarixiy yodgorlik.
7. Milliy cholg'u asbobi.

Kamola ABDUMALIKOVA,
Toshkent viloyati, Bekobod tumanidagi 47-umumta'lim maktabining 4-sinf o'quvchisi



U HAM TA'TILGA CHIQQAN



Sardor ta'tilda qishloqda yashaydigan buvasinikiga mehmonga bordi.

— Har kuni tong sakarlab qichqiradigan xo'rozvoq bugun nimagadir jim, — deya ajablandi buvasi.

— E, shuni ham bilmaysizmi, buvajon, axir hozir ta'til kunlari bo'lsa, u ham mazza qilib uxlayotgandir-da?! — dedi Sardor hozirjavoblik bilan.

26-may 2014

Muassislari:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lgan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV, Abduq'ani XOLBEKOV, Bahodir G'ANIYEV, Svetlana INOMOVA, Murtazo SULTONOV, Zoir ISAJONOV, Feruza JALILOVA, Sa'dullo TURSINOV (Bosh muharrir o'rinbosari), Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib), Sobitxon TURG'UNOV, Zikrilla TESHABOYEV

Navbatchi muharrir
Dilorom HOTAMOVA
Rassom
Feruzbek KAMOL o'gli
Dizayner
Olovuddin ORIPOV

Manzirimiz:
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Tel./faks: 244-63-08
Tel./faks: (99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi – 52850
Buyurtma N: J 9988